



Bizga ma'lumki, Jinoyat kodeksining yettinchi bobidagi 27–30-moddalari jinoyatda ishtirokchilik masalalariga bag'ishlangan. Qonunga ko'ra, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi.

Jinoyat qonunining ishtirokchilikka oid normalari haqida

Jinoyat kodeksining 30-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo‘ladi.



Shaxslarning jinoyat sodir etilishida ishtirokchiligini aniqlash va ularning harakatlari kvalifikatsiyasi O‘zbekiston Oliy sudi plenumining bir qator qarorlarida oydinlashtirilgan.

Oliy sud plenumining 2008-yil 5-maydagi “Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to‘g‘risida”gi 13-qarorida, agar qonunda jinoyatlar majmuiga kiruvchi qilmishlardan biri faqat maxsus subyekt tomonidan, boshqalari esa umumiy subyekt tomonidan sodir etilishi mumkinligi belgilangan bo‘lsa, bunday jinoyatlar Jinoyat kodeksining moddalari bilan alohida-alohida kvalifikatsiya qilinishi tushuntirilgan.

Shuningdek, jinoyatlar majmuini tashkil etuvchi jinoyatlar, agar ulardan birini sodir etishda subyekt jinoyatni bajaruvchi, boshqalarini sodir etishda esa tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi sifatida ishtirok etganda ham shu tarzda kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Jinoyatda ishtirok etgan shaxslarning javobgarlik doirasi Jinoyat kodeksining 30-moddasida o‘zining huquqiy asosini topgan. Unga ko‘ra, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham Jinoyat kodeksi Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish uchun belgilangan moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar.

Jinoyat ishtirokchilari (tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi) bir tomondan va bajaruvchi ikkinchi tomondan bir-biri bilan bog‘liqdir. Jinoiy natija umumiy va yagonadirki, jinoyat sodir qilishda har bir ishtirokchining o‘ziga yarasha o‘rni bor, ya’ni tashkilotchi tashkillashtiradi, dalolatchi qiziqtiradi, yordamchi jinoyatning amalga oshirilishiga yordam beradi.

Ishtirokchilarning javobgarligi jinoyatning obyektiv va subyektiv belgilariga asosan ishoralanadi. Bunda obyektiv tomon ishtirokchilardan har birining javobgarligi Umumiy qism qoidalari va Maxsus qism normasiga asosan belgilanadi.

Ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyat har doim qasddan sodir etilib, subyektiv tomondan ishtirokchilarning ijtimoiy xavfli xususiyati oldindan ogohlantirilganligi, ularning birgalikdagi faoliyati, ruhiy tomoni esa kuchlarni birlashtirish asosida jinoiy natijaga erishish yoki unga ongli ravishda yo‘l qo‘yilishida ifodalanadi.

Ishtirokchilarning javobgarligi doirasini belgilash uchun jinoyat tarkibi elementlaridan tashqari, umumiy va maxsus shartlar ham bo‘lishi kerak. Umumiy shartlar ishtirokchilikning turini, shaklini to‘g‘ri belgilashni, ishtirokchilik shakli jinoyat tarkibining zaruriy belgisi ekanligini yoki uning jazoni og‘irlashtiruvchi holat ekanini qamrab oladi.

Maxsus shartlar ishtirokchilarning javobgarligiga ta’sir qiluvchi obyektiv va subyektiv belgilarga, shuningdek ekssess bajaruvchilik, bajaruvchining va boshqa ishtirokchilarning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishini o‘zida ifodalaydi.

Har bir jinoyat ishtirokchisi sodir etilgan jinoyat uchun jinoiy javobgarlikka tortiladi. Sud jinoyatning og‘irligi, ayb darajasi va jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligiga mos kelishini hisobga olishi lozim bo‘ladi.



Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchining harakatlari bajaruvchi jinoyatning qaysi bosqichida to‘xtatilganligiga qarab, ya’ni bajaruvchi jinoyatni oxiriga yetkazgan, suiqasd qilgan yoki tayyorgarlik ko‘rishda to‘xtatilganligiga qarab kvalifikatsiya qilinadi.

Sud-tergov amaliyotida jinoyatni faqat maxsus subyekt amalga oshirib, boshqa shaxslar jinoyat ishtirokchisi sifatida sodir etilganligi ham uchrab turadi. Bunda tashkilotchi, dalolatchi, yordamchining jinoyatda ishtiroki darajasi aniqlanishi kerak. Jinoyatning subyekti faqat maxsus subyekt bo‘lgan jinoyatlarda ishtirokchilar (tashkilotchi, dalolatchi, yordamchi) maxsus subyekt sodir etgan jinoyatda faqat ishtirokchi sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

Bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan qilmish kvalifikatsiya qilinayotganida ishtirokchilikdagi bajaruvchilardan biri guruh tomonidan kelishilmagan boshqa jinoyatni sodir qilsa, unga baho berishda ayrim qiyinchiliklar vujudga keladi. Buni jinoyat huquqida ekssess bajaruvchi deyiladi. Ekssess deganda bajaruvchi tomonidan boshqa ishtirokchilarning jinoyatidan tashqari yana bir jinoyatning sodir qilinishi tushuniladi.

Jinoyat kodeksining 30-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo‘ladi.

Miqdor ko‘rsatkichli ekssessda bajaruvchi boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olingan jinoyatni sodir qiladi, lekin uning oqibati boshqa ishtirokchilar o‘ylagandan ko‘ra og‘irroq bo‘ladi.

Sifat ko‘rsatkichli ekssessda bajaruvchining harakatlari boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyatidan umuman farq qiladi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, jinoyat sodir etishga undash, provokatsiya qilish yuzasidan javobgarlikni belgilovchi maxsus norma jinoyat qonunchiligida mavjud emas. Ma’lumki, “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasiga ko‘ra, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning fuqarolarni huquqbuzarliklar sodir etishga og‘dirishi va undashi taqiqlanadi. Shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lmagan shaxslarning ham bunday faoliyati qonunga ziddir.

Fikrimizcha, jinoyat sodir etishga undash-provokatsiya qilish ayrim xususiyatlari bilan jinoyat sodir etishga dalolat qilishdan birmuncha farq qiladi. Ya’ni, jinoyat sodir etishga undash-provokatsiya qilishda asosiy maqsad bajaruvchi shaxsni jinoyat ustida yoki uni sodir etganidan keyin ushlash va jinoiy javobgarlikka tortilishini ta’minlashdir. Bunda jinoyatga provokatsiya qilgan shaxs bilan jinoyatni bajaruvchi shaxs o‘rtasida umumiy maqsad mavjud bo‘lmaydi va jinoyatni bajaruvchi shaxs jinoyatga provokatsiya qilayotgan shaxsning asl maqsadidan bexabar bo‘ladi.

Jinoyat sodir etishga undash o‘zining ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra jinoyatga dalolat qilishdan ham xavfliroqdir. Shu sababli amaldagi Jinoyat kodeksiga jinoyat sodir etishga undash yuzasidan javobgarlikni belgilovchi maxsus normani kiritish maqsadga muvofiqdir.

Muhammad QAYUMOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Mirzo Ulug‘bek tumani sudining sudyasi